

**JANUBIY KEMACHIDAGI QAZILMALARNI SUV MIQDORINI  
ANIQLASH UCHUN RATSIONAL O'RGANISH ISHLARINI  
AMALGA OSHIRISH**

*Sultonov Asqarbek Davronbek o'g'li*

*Toshkent davlat texnika universiteti*

*2- kurs magistratura talabasi*

Neft va gaz insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lib, ulardan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligidagi iste'mol qilish o'rni hamda ularga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortib borgan. O'zbekistonda qadim zamonlardayoq neftdan foydalanib kelingan. Neftning o'ziga xos o'tkir hidi tufayli qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda undan foydalanilgan. Neftdan dori-darmon tayyorlash maqsadida Abu Ali ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o'tkazgan. Xorazm geografigi Bakrom (XIII asrda) Bakudagi neftni haydash texnologiyasi haqida birinchi bo'lib eslatib o'tagan. Shuning uchun ham neft va uni qayta ishlash O'zbekistonda eng qadimiy tarmoqlardan biridir. O'zbekistonda neft qazib chiqarish 1876 yildan boshlangan. Farg'onaning Qamishboshi qishlog'ida rus tadbirkori D.P. Petrov tomonidan XIX asrning 80-yillari boshida 25 metrgacha burg'ilangan 2 ta quduqning har biridan kuniga 10 pud (160 kg) gacha neft qazib olgan. 1880-1883 yillar davrida bu quduqlar soni 4 taga yetgan. Quduqlar zarbali usul bilan qazilgan. Ularning devorlari taxta bilan qoplangan va neft maxsus uzun chelaklar (qovg'alar) yordamida tortib olingan. Ba'zi ma'lumotlarga muvofiq bunday quduqlardan kuniga 5-10 tonnagacha neft olingan.

O'zbekiston territoriyasida izlov – qidiruv ishlarining natijasida hozirga vaqtda 200 tadan ko'p neft va gaz konlari ochilgan hamda ishlatishda 100 tadan ko'p konlar bo'lib, shundan 60 tadan ko'pi neft va neftgaz konlaridir.

Janubiy kemachi neftgaz-kondensat koni - Buxoro viloyatidagi kon. Qorovulbozor temir yo'l stansiyasidan 35 km shimoli-sharqda. 1979-yilda ochilgan, 1993-yilda foydalanishga topshirilgan. Kon relyefi tekislikdan iborat bo'lib, shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga qiyalangan, yer yuzasi eol qumlari bilan qoplangan. 236–274 m balandlikda joylashgan.

Kon maydoni Chorjo'y tektonik pog'onasidagi Ispanlichandir ko'tarilmasining sharqiy qismidir. Strukturasi Kemachi-Zekri braxiantiklina-liningjan. qismida mujassamlashgan, 1970-yil seysmik razvedka ishlari natijasida aniklangan. O'lchami 25x 15 km. Keyinchalik qazilgan parametrik quduq ham sanoat miqyosida neft va gaz borligini tasdiqladi. Kondan qazib olingan tabiiy boyliklar tarkibida qanchadir miqdorda suv bo'ladi. Bu tarkibdagi suvlarni ba'zan tabiiy oqava suvlari ham deb atashadi. Tarkibdagi bu suyuqlikni miqdorini aniqlash uchun ratsional amaliyotlarni amalga oshirish lozim. Neft gaz sanoatlarida burg'ulash jarayonida doimiy suvga duch

kelinadi, va suv ham qazilma bilan doimiy aloqada bo'lganligi uchun ham qazilma miqdorida qanchadir miqdorda suv aniqlanadi. Suvni aniqlash davrida undagi minerallar muhim ahamiyat kasb etadi. Minerallar esa suv miqdoridagi asosiy omillardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.И.Мурин, Н.Н.Кисленко, Ю.В.Сурков. Переработка природного газа и конденсата. 2002 год ст.514
2. W.Strauss Industrial gas cleaning. 1981 year page 309
3. Ю.А.Чумаков Газодинамический расчет центробежных компрессоров транспортных, газотурбинных и комбинированных двигателей. Москва 2009 год ст.76
4. О.Н.Емин, В.Н.Карасев, Ю.А.Ржавин Выбор параметров и газодинамический расчет компрессоров. 2003 год ст.146
5. А.Г.Аншиц, Е.Н.Воскресенская Окислительная конденсация метана – новый процесс переработки природного газа. 1999 год ст.146
6. Технологический регламент